



Guruhlarda ishlash ixtisoslashgan maktab o'quvchilarining kommunikativ faolligini oshirish omili sifatida

Saidakhon MAVLANOVA¹

Tashkent University of Humanities

ARTICLE INFO

Article history:

Received October 2025

Received in revised form

5 October 2025

Accepted 10 November 2025

Available online

25 November 2025

Keywords:

group learning,
interactive methods,
professional competence,
communicative competence,
collaborative learning,
constructive approach.

ABSTRACT

This article examines the role of group work in enhancing the quality of native-language and literature instruction in specialised schools. It evaluates the pedagogical potential of collaborative learning and describes innovative approaches applied in the classroom. The paper outlines the psychological and pedagogical foundations of group work, practical mechanisms for implementation, and strategies to boost students' communicative activity – taking into account the high intellectual potential typical of specialised-school cohorts.

2181-1415/© 2025 in Science LLC.

DOI: <https://doi.org/10.47689/2181-1415-vol6-iss11/S-pp79-83>

This is an open access article under the Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) license (<https://creativecommons.org/licenses/by/4.0/deed.ru>)

Guruhlarda ishlash ixtisoslashgan maktab o'quvchilarining kommunikativ faolligini oshirish omili sifatida

ANNOTATSIYA

Kalit so'zlar:

guruhli ta'lim,
interfaol metodlar,
kasbiy kompetensiya,
kommunikativ
kompetensiya,
hamkorlikda o'qish,
konstruktiv yondashuv.

Ushbu maqolada ixtisoslashgan maktablarida ona tili va adabiyot fanlari sifatini oshirishda guruhlarda ishlash metodining o'rnini, uning pedagogik imkoniyatlari, ta'lim jarayoniga kiritadigan innovatsion yondashuvlari tahlil qilinadi. Guruhli o'qitishning psixologik-pedagogik asoslari, amaliy qo'llash mexanizmlari, ixtisoslashgan maktab o'quvchilarining yuqori intellektual salohiyatini hisobga olgan holda, ularning kommunikativ faolligini oshirishning ahamiyati haqida ma'lumot berilgan.

¹ Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences, Associate Professor, Tashkent University of Humanities.

Групповая работа как фактор повышения коммуникативной активности учащихся специализированных школ

АННОТАЦИЯ

Ключевые слова:

групповое обучение, интерактивные методы, профессиональная компетентность, коммуникативная компетентность, совместное обучение, конструктивный подход.

В статье анализируется роль метода групповой работы в повышении качества преподавания предметов родного языка и литературы в специализированных школах, его педагогические возможности и инновационные подходы, внедряемые в образовательный процесс. В статье представлены сведения о психолого-педагогических основах групповой работы, механизмах её практического применения, а также о значении повышения коммуникативной активности учащихся специализированных школ с учётом их высокого интеллектуального потенциала.

Zamonaviy ta'lim jarayonida o'quvchilarni faollikka undovchi, ularni kommunikativ, ijtimoiy va kasbiy kompetensiyalarga ega bo'lgan shaxs sifatida tarbiyalash asosiy vazifalardan biridir. Ayniqsa, ixtisoslashgan maktablarda bu jarayon yanada muhim ahamiyatga ega, chunki mazkur ta'lim muassasalarida o'quvchilarning qobiliyat va yo'nalishlariga mos tarzda chuqurlashtirilgan ta'lim beriladi. Ushbu sharoitda o'quvchilarning bir-biri bilan samarali muloqot qilishi, fikr almashishi, guruhda o'z o'rnini topishi, yetakchilik va hamkorlik ko'nikmalarini rivojlantirishi talab etiladi. Ta'limda o'quvchilarga har bir fanni qiyin emas, balki qiziqarli fan tamoyilida ongli ravishda singdirishimiz hamda turli xil metodlar zamonaviy ta'lim vositalari yordamida dars jarayonini tashkil qilishimiz kerak. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ-4312-sonli " Umumiy o'rta ta'lim tizimini sifat jihatdan yangi bosqichga ko'tarishga oid qo'shimcha chora tadbirlar to'g'risida" qaroridagi muhim jihat shundaki: " O'quvchilarda zamonaviy ko'nikmalarni, mustaqil fikrlash va kommunikativ qobiliyatlarni shakllantirish uchun yangi metodikalar joriy etilishi" ko'zda tutilgan [1]. Bundan tashqari O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PF-6108-sonli Farmoni ya'ni "O'zbekiston Respublikasini 2030-yilgacha rivojlantirish strategiyasi"da "ta'limda o'quvchilarning kreativ va tanqidiy fikrlash qobiliyatini rivojlantirish asosiy ustuvor vazifa sifatida belgilanadi" [2].

Zamonaviy ta'limning asosiy vazifalaridan biri shaxsning kommunikativ kompetentligini shakllantirishdan iborat. Bu kompetentlik o'quvchilarning ijtimoiy moslashuvi, kasbiy faoliyati va shaxsiy rivojlanishi uchun muhim ahamiyatga ega. Ixtisoslashgan maktablar o'quvchilarining yuqori intellektual salohiyati ularning kommunikativ ko'nikmalarini rivojlantirish uchun qulay sharoit yaratadi. Shu bilan birga, ularning o'ziga xos psixologik xususiyatlari (mustaqillik, tanqidiy fikrlash, ijodkorlik) o'qituvchidan maxsus yondashuvni talab etadi.

Bugungi kunga kelib, o'qituvchi qanchalik bilimli, malakali bo'lmasin agar u an'anaviy yondashuvda qolib ketgan bo'lsa, ayni vaqtdagi globallashtirish jarayonida uning bu bilimlari albatta kamlik qiladi. Yuldashev J.ning fikriga ko'ra: "Innovatsion ta'lim texnologiyalari o'quvchilarda kreativ fikrlash, mustaqil qaror qabul qilish va zamonaviy kasbiy kompetensiyalarni shakllantirishni maqsad qiladi" [3].

Umumiy o'rta ta'lim maktablarida kommunikativ kompetensiyalarni qo'llash orqali o'quvchilarni ta'lim jarayonida faol ishtirok etishga rag'batlantirish juda muhimdir. Bu maqsadga erishish uchun sinfda munozarali muhokama muhitini yaratish zarur. Munozaralar, o'quvchilarning fikr almashish, g'oyalarni baham ko'rish va turli nuqtai nazarlarni eshitish imkonini beradi, bu esa ularning kommunikativ kompetensiyalarini rivojlantiradi.

Bunday muhitni yaratishda quyidagi metodlardan foydalanish mumkin:

1. Guruhli ishlash: O'quvchilarni kichik guruhlariga bo'lish orqali har bir guruhga muayyan mavzu yoki masala berilishi mumkin. Guruhlar o'z fikrlarini muhokama qilib, keyinchalik sinf oldida taqdimot qilishlari kerak. Bu metod o'zaro fikr almashishni va jamoaviy ish ko'nikmalarini rivojlantirishga yordam beradi.

2. Rol o'yinlari: O'quvchilarga turli rollarni bajarish orqali voqea yoki muammo yechimini izlash topshirilishi mumkin. Rol o'yinlari orqali ular turli nuqtai nazarlarga ega bo'lishadi va muloqot qilish qobiliyatlarini oshiradilar.

3. Debatlar: O'quvchilarni ikki yoki undan ortiq jamoaga bo'lish va ularga biror mavzu bo'yicha argumentlar tayyorlash topshirilishi mumkin. Bu metod mantiqiy fikrlash, dalillar keltirish va tinch munozara olib borishni rivojlantiradi.

4. Qiziqarli savol-javob sessiyalari: O'quvchilarga qiziqarli savollar berib, ularni javob berishga undash mumkin. Bu jarayonda savol beruvchi va javob beruvchi sifatida har bir o'quvchi faol ishtirok etishi talab etiladi.

5. Tadqiqot loyihalari: O'quvchilarni mustaqil yoki guruh bo'lib tadqiqot olib borishga undash orqali ular ma'lumotlarni topishga, tahlil qilishga va natijalarni taqdim etishga tayyorlanadilar.

Bu metodlar yordamida kommunikativ kompetensiyalarni rivojlantirish jarayoni nafaqat bilim olish, balki ijtimoiy ko'nikmalarni ham shakllantirishga xizmat qiladi. Natijada, o'quvchilar nafaqat fan bilimlarini egallab qolmaydi, balki kelajakda jamiyatda muvaffaqiyatli faoliyat yuritishda zarur bo'lgan kommunikativ qobiliyatlarni ham oshiradilar.

Shu bilan birga, pedagogik yondoshuvlar va metodlarning xilma-xilligi ta'lim jarayonini yanada rang-barang qiladi hamda har bir o'quvchining individual ehtiyojlariga mos keladigan sharoit yaratadi.

Zamonaviy ta'lim tizimi o'quvchilar shaxsini har tomonlama rivojlantirishga qaratilgan bo'lib, turli xil variantlar va aloqa vositalarini o'z ichiga oladi, ular yordamida o'quvchilarning ehtiyojlari va hamkorlik qilish qobiliyatini shakllantirish, samarali o'zaro ta'sir va aloqani rivojlantirish, malakalari amalga oshiriladi. Xususan, Jalilova S.X., Aripova S. "Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat" asarida bu xususida shunday fikr bildirgan: "Ta'limda zamonaviy texnologiyalarning qo'llanilishi o'quvchi va o'qituvchi o'rtasidagi samarali muloqotni shakllantirib, o'quvchilarda mustaqil qaror qabul qilish va faol ishtirokni ta'minlaydi" [4].

Pedagogik adabiyotlarda guruhlarda ishlash metodining afzalliklari keng yoritilgan bo'lsa-da, uning ixtisoslashgan maktablar sharoitida qo'llanilishi va samaradorligiga bag'ishlangan tadqiqotlar yetarli emas. Amaliyotda esa, ko'pincha, guruhlarda ishlash metodi o'quvchilarning bilim darajasi, qiziqishlari va psixologik xususiyatlari hisobga olinmagan holda qo'llaniladi. Bu esa, o'z navbatida, metodning samaradorligini pasaytiradi.

Guruhlarda ishlash metodi o'quvchilarni ijtimoiy-psixologik jihatdan faollashtiradi, ularning nutqiy faoliyatini rag'batlantiradi, muloqotga kirishishdagi to'siqlarni kamaytiradi. Shu sababli, ushbu metod ixtisoslashgan maktab o'quvchilarining kommunikativ faolligini oshirishning samarali pedagogik texnologiyasi sifatida qaraladi. Chunki ushbu metod o'quvchilarni dars jarayonining faol ishtirokchisiga aylantirib, ularni fikrlash, nutqiy ifodalash, bahs-munozara olib borish hamda jamoada ishlash ko'nikmalarini bosqichma-bosqich rivojlantirishga xizmat qiladi. Hamkorlikka asoslangan guruhli faoliyat o'quvchilarda o'z fikrini aniq bayon qilish, boshqalarni tinglash, muloqot strategiyasini to'g'ri tanlash, argumentlash va muhokamada ishtirok etish kabi kommunikativ kompetensiyalarning shakllanishiga keng imkon yaratadi. Shuningdek, ixtisoslashtirilgan maktab sharoitida guruhlarda ishlashning ahamiyati o'quvchilar chuqurlashtirilgan ilmiy mazmundagi topshiriqlar, loyihalar va tadqiqotlar bilan ishlaydilar. Guruhli ish esa mazkur jarayonni tabiiy tarzda qo'llab-quvvatlab, o'quvchilarni ilmiy muloqot, fikr almashuv, jamoaviy izlanish va taqdimot ko'nikmalariga tayyorlaydi. Natijada o'quvchilarning kasbiy va akademik faolligi, liderlik salohiyati, ijtimoiy faolligi va mustaqil fikrlash darajasi oshadi.

Shu bilan birga, guruhlarda ishlash o'quvchilarning emotsional-intellektual rivojlanishini qo'llab-quvvatlaydi: ular o'zaro hurmat, mas'uliyat, bir-biriga yordam berish, fikrlar xilma-xilligini qadrlash kabi shaxslararo kommunikatsiya madaniyatini egallaydilar. Bunday ko'nikmalar esa zamonaviy ta'lim va kelajak kasbiy faoliyat uchun zarur bo'lgan "yumshoq ko'nikmalar" (soft skills) qatoriga kiradi.

Guruhlarda ishlash metodi ixtisoslashgan maktab o'quvchilarining kommunikativ faolligini oshirishning kuchli omili sifatida:

1. Kommunikativ faollikni oshiradi
2. Jamoada ishlash kompetensiyasini rivojlantiradi
3. Tanqidiy va ijodiy fikrlashni rivojlantiradi
4. O'quvchi faolligini oshiradi
5. Mustaqil fikrlash va o'zini ifodalash imkonini beradi
6. Ijtimoiy-emotsional ko'nikmalarni rivojlantiradi
7. Ta'lim jarayonining samaradorligini oshiradi
8. Motivatsiyani kuchaytiradi
9. Yetakchilik qobiliyatini shakllantiradi
10. Tadqiqot va analitik ko'nikmalarni kuchaytiradi
12. Shaxsning o'z-o'zini baholash va refleksiya ko'nikmalarini rivojlantiradi
13. O'quvchilarni kelajakdagi kasbiy va ijtimoiy hayotga tayyorlaydi.

Xulosa qilib aytganda, guruhlarda ishlash metodi ixtisoslashgan maktab o'quvchilarining kommunikativ faolligini rivojlantirishda nazariy va amaliy jihatdan yuqori samaradorlikka ega pedagogik texnologiya hisoblanadi. Xuddi shuningdek, konstruktivizm, sotsiokultural nazariya (L.S. Vygotskiy), hamkorlikda o'qitish konsepsiyalari (J. Dewey, R. Johnson, D. Johnson)ga ko'ra, bilimning shakllanishi muloqot, ijtimoiy o'zaro ta'sir va guruhli faoliyat orqali amalga oshadi. Guruhli ta'lim aynan ushbu jarayonlarni faollashtirib, o'quvchilarda mazmunli kommunikativ aloqalar, fikr almashish va o'zaro tushunish mexanizmlarini shakllantiradi. Shuningdek, guruhlarda ishlash ixtisoslashgan maktablar dasturiga xos bo'lgan murakkab, tahliliy, tadqiqot xarakteridagi topshiriqlarni bajarishga mos keladi. Loyihaviy faoliyat, tadqiqot ishlari, muammoli vaziyatlar va ilmiy-amaliy izlanishlarning guruh shaklida tashkil etilishi o'quvchilarning akademik faolligi, ijtimoiy burchni anglash, yetakchilik kompetensiyasi va mustaqil intellektual izlanishlarini qo'llab-quvvatlaydi.

Shunday qilib, guruhlarda ishlash metodini ixtisoslashgan ta'lim amaliyotiga tizimli joriy etish o'quvchilarning kommunikativ kompetensiyasini shakllantirish, ijodkor va faol shaxsni tarbiyalash hamda ularni kelajakdagi kasbiy yo'nalishga puxta tayyorlashning ilmiy jihatdan asoslangan, samarali va innovatsion yo'llaridan biri hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. <https://lex.uz>. 2019-yil. 5-mart.
2. <https://lex.uz>. 2020-yil 11-sentyabr.
3. Yuldashev J. Innovatsion pedagogic texnologiyalar. 2018. 280-bet.
4. Jalilova S.X, Aripova S. Pedagogik texnologiyalar va pedagogic mahorat. 2013. – 320-bet.
5. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti (2019). PF-6108-son Farmon: "O'zbekiston Respublikasini 2030-yilgacha rivojlantirish strategiyasi".
6. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti (2019). PQ-4312-son qaror: "Umumiy o'rta ta'lim tizimini sifat jihatdan yangi bosqichga ko'tarish to'g'risida".
7. Jalilova, S. X., Aripova, S. (2020). Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. Toshkent: Turon zamin nashriyoti.
8. Yuldashev, J. (2019). Innovatsion ta'lim texnologiyalari. Toshkent: Fan va texnologiya.
9. Mavlonova, R., To'raeva, G., Qo'ysinov, O. (2016). Pedagogika. Toshkent: O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati.
10. Ziyomuhamedov, B., Xodiyeva, N. (2018). Interfaol metodlar asosida ta'lim jarayonini tashkil etish. Toshkent: TDPU nashriyoti.